O`zbekiston delegatsiyasi Xalqaro atom energetikasi agentligi konferensiyasida ishtirok etdi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-sentabrdagi 747-f-sonli farmoyishiga asosan, 16-22-sentabr kunlari Avstriyaning Vena shahrida o‘tkazilgan Xalqaro atom energetikasi agentligining 62-konferensiyasida O‘zbekiston Respublikasi delegatsiyasi ishtirok etdi.

Konferensiyasining 62-sessiyasi plenar yig‘ilishining dastlabki kunida O‘zbekiston delegatsiyasi rahbari, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti B.S. Yuldashev ma’ruza qildi.

O‘zR FA prezidenti o‘z nutqida Atom energiyasi bo`yicha Xalqaro agentlik (AEXA) faoliyati va atom energiyasi, shuningdek, yadroviy texnologiyalarni tinch maqsadlarda rivojlantirish bo‘yicha o‘zaro manfaatli hamkorlikka qiziqish borligini ta’kidladi. O‘zbekistonda AEXA bilan hamkorlik o‘rnatilganidan beri radiatsiya va yadroviy xavfsizlikni ta’minlash hamda mustahkamlash, texnik hamkorlik doirasida loyihalarni birgalikda bajarish borasida katta ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston delegatsiyasi O‘zbekiston Respublikasining yadro energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish dasturini ishlab chiqish to‘g‘risida qaror qabul qilganini va 2018 yil 7-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hukumati o‘rtasida O‘zbekistondagi birinchi Rossiya texnologiyalari asosida atom stansiyasini qurish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida bitim imzolanganini ma’lum qildi. Shuningdek, bu yig`ilishda AEXA va tashkilotning boshqa a'zolari ushbu yo'nalishda respublikamiz bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini qo'llab-quvvatlashi bildirilgan.